

16-mavzu: "Yaxshilik". Hikoya (Farhod Musajonov)

Darsning maqsadi:

- a)ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o`quvchilarga ifodali o`qishni o`rgatish.
- b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga kattalarni hurmat qilishni, insonlarga yaxshilik qilish kerakligini va qilgan yaxshiligini maqtanmaslikni o`rgatish, maqtanchoqlik yomon odat ekanligini tushuntirish.
- c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,savol-javob, "Davomini top! ", "Topib o`qi!", "Kim hozirjavob?", "Yosh aktyor" ta'limiy o`yinlari.

Dars jihizi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat soati o`tkazish.

II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – **Insoniy fazilatlar to`g`risida maqollar**. O`quvchilar maqollarni yoddan aytib beradilar va ma'nosini izohlaydilar.

Savollar.

- 1.Maql nima ?
- 2.Insoniy fazilatlarni sanab bering.
- 3.Odob haqida maqollar ayting.
- 4.Sizga qaysi fazilatlar yoqadi?

"Davomini top" mashqi. O`quvchilar berilgan maqollarning davomini topadilar.

Kamtarga –
kamol,

.....

Ish ishtaha
ochar,

Dangasa

Himmat – elning
tayanchi,
Mehnat –

Yaxshi xislat -

.....

III.Yangi mavzu bayoni.

"Kim hozirjavob?" o'yini.

O'quvchilarga savollar beriladi va ular savollarga javob beradilar.

Yaxshilik deganda
nimani tushunasis?
Yaxshilik oshkora
bo`ladimi yoki pinhona?

Yaxshilik nur keltirar,
Yomonlik - zulmat.
Maqolni izohlang.

Bugungi mavzu e'lon qilinadi:**"Yaxshilik"** hikoyasi.Hikoya muallifi Farhod Musajonov haqida ma'lumot beriladi. Yangi mavzu o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi.

Hovliqib – shoshilib **Qariya** – keksa odam

"Yaxshilik" hikoyasi o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

- 1.**Normamat bobo nima uchun Fazliddinni yaxshi ko`rardi?
- 2.**Nima uchun Normamat bobo jilmayib qo`ydi?
- 3.**Normamat bobo Fazliddinga nima deb pichirladi?
- 4.**Fazliddin boboning gapini Nabi o`rtog`iga aytdimi?
- 5.**Siz nima deb o`ylaysiz,yaxshilik ham yuvilib ketadimi?
- 6.**Siz ham atrofingizdagilarga yaxshilik qilasizmi?

"Topib o`qi!" mashqi.

O`quvchilar hikoyadan Normamat bobo Fazliddinni yaxshi ko`rishini bildirgan gaplarni topib o`qiydilar.

"Yosh aktyor" o`yini.

O`quvchilar rollarga bo`linib, hikoya mazmunini sahna ko`rinishida ijro etadilar.

"Tez aytish" musobaqasi.

O`quvchilar o`rtasida musobaqa o`tkaziladi. Ular tez aytishni yod oladilar va aytadilar. G`olib bo`lgan o`quvchi rag`batlantiriladi.

Tez aytishni tez aytamiz!

- Darsda Nasim rasm soldi,
Nasim rasmga razm soldi.
- Temur bilan Yo`Ichi – temiryo`Ichi,
Temiryo`Ichiga aytib ko`r-chi!

Mashq daftар bilan ishlash.

1-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Yaxshilik deganda nimani tushunasiz? Yaxshilik oshkora bo`lishi kerakmi yoki pinhona?

2. „Yaxshilik nur keltirar, yomonlik – zulmat“ maqolini izohlang.

O`quvchilar o`z fikrlarini yozadilar.

2-topshiriq. Maqollarni davom ettiring.

1.Qozonga yaqin yoursang, qorasi yuqar,

Yomonga yaqin yoursang, bbalosi yuqar.

2. Yaxshiga yondash, Yomondan qoch.

3. Kimki bo`lsa dilozor, Undan el-u yurt bezor.

4. Yomonning dasturxonidan, Yaxshining ustixoni yaxshi.

5. Yaxshilik qil-u, suvgaga ot, suv bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa Xoliq bilur.

6. Halollik eng qadrli narsadir.


7. Ezgulikning erta-kechi yo`q.

8. Kamtarga kamol, Manmanga zavol.

3-topshiriq. Hikoyadan Normamat bobo Fazliddinni yaxshi ko`rishini anglayotgan gaplarni toping.

- A. Men borib, Normamat bobomlarga yordam beraman.
- B. Bilasanmi, ... men doim qariyalarga yordam beraman.
- C.** Meni Normamat bobo juda yaxshi ko`radilar.
- D. Ishonmasang, men bilan yur, o`zing ko`rasan.

4-topshiriq. Boshqotirmani yeching.



V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob o`tkaziladi.

–Bugungi mavzu sizga yoqdimi?

–Siz ham keksa odamlarga yordam berasizmi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. Hikoyani ifodali o`qing. Hikoya mazmuniga mos maqollar topib, yozish.